


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

***70730701 –Ko'chmas mulkni baholash va boshqarish
magistratura mutaxassisligining***

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLIGAN:
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "01" _____ dagi 277 – sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
	Bibliografik ma'lumotlar	9
	Kelishuv varag'i.....	10

1. Umumiy tavsifi

70730701 – Ko‘chmas mulkni baholash va boshqarish magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi shaklda amalga oshiriladi. Mazkur ta‘lim shakli bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy o‘qish muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi

Malaka talablari 70730701 – Ko‘chmas mulkni baholash va boshqarish magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi (boshqarma) boshlig‘i (o‘quv ishlari dekanati dekani), dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

oliy ta‘lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari

Fan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohaslarida kapital qurilish hamda ta‘mirlash ishlarini amalga oshirish bilan bog‘liq investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, qurilish ishlarini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish, qurilish sohasida iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish, qurilish ishlarining smeta qiymatini hisoblash va iqtisodiy samaradorligini baholash, qurilish obyektlari smeta qiymatini ekspertiza qilish, investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida qiymat nazoratini tashkil etish, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohaslarida

ko‘chmas mulk hlaridan foydalanishni tashkil etish, ko‘chmas mulk ishtirokidagi iqtisodiy munosabatlar (serveying, development, rieltorlik, baholash va h.k.)ni amalga oshirish, ko‘chmas mulkni yaxshilash va rivojlantirish bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

oliy ta‘lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta‘lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq loyihalash-ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

ko‘chmas mulk bozori va bozor infratuzilmasi obyektlari;

iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi korxonalar, muassasa va tashkilotlarning ko‘chmas mulk obyektlari;

turli maqsadlarda foydalaniladigan inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalari;

ko‘chmas mulk obyektlarini qurish, qayta qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash korxonalar, muassasa va tashkilotlari;

ko‘chmas mulk obyektlarini ekspertiza qilish va ularni samaradorligini oshirish bilan bog‘liq faoliyatlarni amalga oshiruvchi korxonalar, muassasa va tashkilotlar;

ko‘chmas mulk bozori va ko‘chmas mulk ishtirokidagi mulkiy munosabatlar amalga oshiriladigan korxonalar, muassasa va tashkilotlar;

tabiiy ko‘chmas mulk obyektlari, jumladan yer uchastkalari, shahar va shahar tashqarisidagi ko‘chmas mulk obyektlari uchun ajratilgan hududlar;

ko‘chmas mulk obyektlarining yer maydonlari;

ko‘chmas mulk obyektlarini baholash, ekspertiza qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog‘liq faoliyatlarni amalga oshirish jarayonlari, ilmiy tadqiqot jarayoni, o‘quv jarayonlari.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

ilmiy-tadqiqot faoliyati;

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

loyhaviy-konstruktorlik faoliyati;

pedagogik faoliyat;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati.

1.2.4. Kasbiy vazifalari

70730701 – Ko‘chmas mulkni baholash va boshqarish mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish va tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning) va mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv- metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

ko'chmas mulk obyektlaridan foydalanish hamda arxitektura va qurilish sohasidagi jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;

arxitektura va qurilish sohasiga oid zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

ko'chmas mulk obyektlari ishtirokidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish;

ko'chmas mulk obyektlarini qurish, qayta qurish, rekonstruksiya qilish hamda ularda turli yaxshilanishlarni amalga oshirish ishlari sifatini boshqarish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ko'chmas mulk obyektlarining hayotiylik davrida ulardan foydalanish bilan bog'liq texnologik jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurslar ta'minotini rejalashtirish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

birlamchi ishlab chiqarish bo'g'inining ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirishda erishilgan natijalarini baholash;

mutaxassisligiga tegishli ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish jarayonlarini va ilmiy jamoani boshqarish;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

ko'chmas mulk obyektlari qurilishini loyihalash uchun axborotga oid va boshlang'ich ma'lumotlarni to'plash hamda loyihalash ishlarini tashkil etish;

ko'chmas mulk obyektlarining arxitektura-qurilish loyihalarini ekspertiza qilish; obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun standartlar, qurilish qoidalari va me'yorlari, shaharsozlik normalari va qoidalari, texnik shartlar va boshqa ijro hujjatlari ishlab chiqish va takomillashtirish;

obyektlarini qurish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish loyihalarini tayyorlashda konstruktiv yechimlar, standartlar, qurilish qoidalari va me'yorlari, shaharsozlik normalari va qoidalari, texnik shartlar va boshqa ijro hujjatlariga rioya qilish;

loyiha ishlarida zamonaviy usullar va avtomatlashtirilgan kompyuter-texnik vositalaridan foydalanish;

ishlab chiqiluvchi loyihalar va texnik hujjatlarni vazifalar, standartlar, me'yorlar, texnik shartlar va boshqa ijro hujjatlarini ishlab chiqish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni bilishi;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni va tahliliy ishlarni bajarishni bilishi;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha iqtisodiy, strategik rejalarni ishlab chiqish, kommunal xo'jaligi sohasida yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda

nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

iqtisodiy vaziyatlarga tahdid soluvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish malakasiga ega bo'lish;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tkazishni bilish kabi **ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.**

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Mutaxassislik bo'yicha ilmiy amaliyot (stajirovka) o'tkaziladi:

Ilmiy amaliyot (stajirovka) – soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish, fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish, sohaga tegishli amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish, kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashni ko'zda tutadi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	ITM 1104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M 1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	1
1.03	MBUMHA 11210	Mulkni baholash va uning me'yoriy huquqiy asoslari	300	10	1,2
1.04	MS 1204	Makroiqtisodiy siyosat	120	4	2
1.05	QBShSI 12310	Qurilishda bahoni shakllantirish va smeta ishi	300	10	2,3
1.06	KMK 1104	Ko'chmas mulk kadastri	120	4	1
1.07	RB 1106	Risklarni boshqarish	180	6	1
2.00		Tanlov fanlari	540	18	2,3
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	540	18	2,3
		Jami	1800	60	
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	
3.01	ITMDT 3130	Ilmiy-tadqiqot va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	900	30	1,2,3,4
3.02	IPI 3112	Ilmiy-pedagogik ish	360	12	1,2,3
3.03	IA(S) 3418	Ilmiy amaliyot (stajirovka)	540	18	4
		Jami	3600	120	
	Kvalifikatsiya	Ko'chmas mulkni boshqarish bo'yicha muhandis, pedagog-tadqiqotchi.			
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, magistratura mutaxassisligi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, magistraturaning o'quv jarayoni, ko'chmas mulk obyektlari, ko'chmas mulk bozori, baholash faoliyati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, magistrlik dissertatsiyasi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti


Rektor  **v.v.b. B.A. Tulaganov**

202_yil "____" _____

M.O'.



KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**
Direktor  **M. Boltabayev**



202_yil "____" _____

M.O'.

**Islom Karimov nomidagi
Toshkent Davlat Texnika Universiteti**


Rektor  **S. Turabdjano**



202_yil "____" _____

M.O'.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR
ASSOTSIATSIYASI raisi**

 **A. Islamov**

202_yil "____" _____



M.O'.

**"MIDLAND CONSULTING"
MCHJ direktori**

 **N. Muxiddinov**



202_yil "____" _____

M.O'.